

Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi

AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



**Do`stlik tuman Uchtom irrigatsiya tizimi boshqarmasi
faoliyati to`g`risida qisqcha bibliografik ma`lumot.**

Do`stlik sh - 2024

Kirish

Olimlar sayyoramizdagi ilk tirik mavjudodlar suvda paydo bo'lganini takidlashadi. Suvsiz hayot yo'q. Uni insoniyat ko'z qorachig'idek asrashga majbur. Suv yer yuzidagi har bir tirik janzot uchun eng muhim hayot manbai hisoblanadi. **Yer** - xazina , **suv** - gavhar deb bejiz aytmagan dono xalqimiz. Yer ham suv ham odamlarni oziq- ovqat mahsulotlari, noz - ne'matlar bilan taminlaydi, salomatlikni asraydi, shu boisdan azal-azaldan xalqimizda suv manbalaridan oqilona foydalanishga va uni asrashga jiddiy e'tibor qaratishgan. Sayyoramizdagi ekalogik muomolar suv manbalariga ham beqiyos ta'sir ko'rsatmoqda . Ekalogik madaniyatni yuksaltirish kabi dorzarb muomolarga insoniyat e'tiborini qaratish maqsadida har yili **22- mart** - Butunjahon suv zaxirasi kuni sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi. Bugungi atrofimizdagi ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekalogik muomolar barchamizni ogohlikga chorlaydi , bugun bizga hayot, zavq ulashayotgan suvdan kelajak avlod ham bizdek bahra olishga haqli.



Zeroki; Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suvdur .

Yemato tajribalaridan kelib chiqadigan xulosaga ko'ra , suv tashqaridanBo'ladigan har qanday ta'sirga o'z munosabatini bildiradi,

suv gapiradieshitadi, ko`radi. Xalqimiz ijodida suv bilan bog`liq o`ta qiziq axborotko`dlari yashirilgan. O`zbek xalqida; ***Yaxshilik qil daryoga tashla, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar. Tushingni suvga ayt*** singari maqollar ko`p uchraydi.



Bizning Do`stlik tumanida ham bir qator suv inshootlari mavjud shulardan biri Uchtom irrigatsiya tizimi boshqarmasi bilan sizlarni yaqindan tanishtirmoqchiman.

**Uchtom irrigasiya tizimi boshqarmasi bo`yicha
suvdan foydalanishga qaratilgan Qonun xujjatlari ijrosini
ta`minlash to`g`risida ma`lumot**

Uchtom irrigatsiya tizimi boshqarmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023 yil 24-martdagi** Irrigatsiya tizimlarini boshqarishni ma`muriy - hududiy pirinsiplari Xavza pirinsipiga o`tish to`g`risidagi PF – 3226 sonli Farmoni, Vazirlar Maxkamasining **2003 yil 21 iyuldagi**

Suv ho`jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to`g`risidagi 320-sonli qarori, Respublika Qishloq va suv ho`jaligi Vazirligining **2003 yil 28 iyuldagi** 121 – sonli buyrug`iga asosan quyi Sirdaryo irrigasiya tizimlari Xavza boshqarmasi tarkibida **2003 yil 1 oktabrdan** tashkil etilgan bo`lib, O`zbekiston Respublikasining Suv va suvdan foydalanish to`g`risidagi Qonuni, Vazirlar Maxkamasining O`zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish to`g`risidagi **1993 yil 3 avgustdagi** 385- sonli va **1992 yil 7 apreldagi** 174 - sonli Qarorlariga amal qilgan holda xizmat hududi bo`yicha Jizzax viloyatida Arnasoy, Do`stlik, Zafarobod, Paxtakor hamda Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani va Oqoltin tumanining U. Nosir va Bobur xo`jaliklariga suv ta`minoti bo`yicha xizmat ko`rsatadi.

Tizim tasarrufidagi **221,11 km** tumanlararo va ho`jaliklararo **74** dona yirik to`siqli, **202** dona suv chiqaruvchi, **13** dona suv tashlama gidrotexnik hamda **206** dona suv o`lchash inshootlaridan foydalanib kelmoqda. Shu bilan birgalikda SUF larga qarashli Arnasoy tumanida, **68 km**, Do`stlik tumanida **88,4 km**, Zafarobod tumanida **62,8 km**, Paxtakor tumanida **29,9** va Sardoba tumanida **59 km** xo`jalik ichki sug`orish tarmoqlari orqali Qishloq xo`jaligi ekinlarini sug`orish uchun suvdan foydalanish rejasiga va ajratilgan suv limintlari doirasida suv yetkazib berilayapdi. Ushbu sug`orish tizimlari orqali Jizzax viloyatida **47** ta Sirdaryo viloyatida **12 ta**, jami bo`lib **59 ta** birlamchi suvdan foydalanuvchilar bilan suv taminoti va suvdan foydalanish to`g`risida **2008 - 2009** gidrologik yillarga shartnoma tuzilgan. Huddi shunday SUFlar birlamchi suvdan foydalanuvchilar va fermer ho`jaliklari o`rtasida shartnomalar tuzilgan. Shundan Arnasoy tumanida **326 ta** Do`stlik tumanida **463 ta**, Zafarobod tumanida **361 ta**, Paxtakor tumanida **324 ta**, Sardoba **313 ta**, Oqoltin tumanida **149 ta** jami **1936 ta** **2024** yil yozgi sug`orish davrida **812,08** mln. m³ suv liminti

ajratilgan edi, amalda **715,92** mln. m³ suv olingan yani Suv ta`minoti **88** foizni tashkil etadi .



SUVGA BO`LGAN MUNOSABAT O`ZGARMAS EKAN, HOSILDORLIKNI OSHIRISH HAQIDA GAP HAM BO`LISHI MUMKIN EMAS.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

SUV ZAR SUVCHI ZARGAR

YER - XAZINA SUV - GAVHAR

SUVNING KO`PI HAM BIR BALO

O`ZI HAM BIR BALO



Suvni tejash madaniyati turmushimizning ajralmas qismiga aylanishi kerak!

Suv haqida maqollar.

Tinch oqqan suv g'arq qilar.

O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma.

Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suv.

Oldingdan oqqan suvni qadri yo'q.

Suv — zar, suvchi — zargar.

Suvning ozi ham bir balo, ko'pi ham bir balo.

Do'st do'stga boqar, suv soyga oqar.

Oshning ta'mi tuz bilan, suvning t'a'mi muz bilan.

Suv — hayot manbai.

Suvni bersang elga, yasharsan ming yilga.

Har toycha o'zi suv ichgan bulog'ini maqtar.

Oqar suvning haromi yo'q.

Bir kishi ariq qazar, ming kishi suv ichar.

Ko'lماك suvga — sassiq alaf.

Ko'r ko'rni topar, suv — chuqurni.

Oy suluvi — nur, Soy suluvi — suv.

Birov suv topolmaydi ichgani, birov suv topolmaydi kechgani.

Suvni ming qaynatsa ham quyulmas.

Suv ichadigan qudug'ingga tupurma.

Suv ichganda, ariq qaziganni unutma.

Suvni ich, chashmani bulg'ama.

Yiroqdagi suv bilan chanqoqlik qonmas.

Suv ham qattiq yerda to'xtab turar.

Toshni siqqan bilan suv chiqmas.

Pismaniq, telba farq qilar, tinch oqqan suv g'arq qilar.

Suvga suyanma, yovga sig'inma.



Soha fidoiysi suvchi ayol.



Ayol kishini hamma narsa baxtli qilishi mumkin, qachonki, u o'z sevimli ishi bilan shug'ullansa. Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz har ishda

tadbirkor, xalq tili bilan aytganda, uddaburon, tadbirli, samimiy inson, suv xo'jaligi sohasiga ko'p yillardan buyon o'z hissasini qo'shib kelayotgan ustozimiz Uchtom irrigatsiya tizimi boshqarmasi suvchi ayoli Chimkentova Dilduza Irisbek qizi.

Dilduza opa qariyb 33 yildirki suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritib kelmoqda. O'z ishining ustasi, kasbini sevuvchi va undan faxrlanuvchi, sug'orish mavsumida o'z shogirtlariga dalda bo'lguvchi fidoiy ayol. O'z ish faoliyati davomida o'nlab shogirtlarni tarbiyalagan. Tashkil etiladigan turli xil loyihalarda faol qatnashadi. Tashabbuskor targ'ibotchi, boshqarmamiz yuragi, har birimizning onamizdek g'amxo'r bir so'z bilan aytganda kasbining fidoiy xodimasi.

Suv bilan bog'liq tibbiy tavsiyalar.

-Jigildon kaynasa, suv ichishni odat kiling!!!

-Ich kotsa, suv ichishni!

-Ut dimlanishida, ut kuyuklashishida kun davomida suv ichib yurishni odat kiling.

-Kon kuyuk bulsa, suv ichishni,

-Isitma kutarilsa tez tez suv iching.

-Bugimlar karsillasa, bugimlarga suv yetkazib bering.

-Anemiyada avvalo eritrositlarni suv bilan tuyintiring.

-Teri va shillik kavatlar kurishida ularga suv yetib borishini taminlang.

-Xazm buzilishlarida suv tez tez suv ichib turing.

-Xomiladorlik toksikozida tez tez suv ichib turing.

-Kuz gavxari xiralashmasligi uchun meyorda suv ichib yuring.

-Asabiylashganda, xayajonlanganda suv iching.

*Foydalanilgan manbalar : ijtimoiy tarmoqlar.
Uch tom irrigatsiya xodimlaridan ma`lumotlar yozib olindi.*

MUNDARIJA.

KIRISH.....1

<i>Uchtom irrigatsiya tizimi boshqarmasi bo`yicha suvdan foydalanishga qaratilgan Qonun xujjatlari ijrosini ta`minlash to`g`risida ma`lumot.....</i>	<i>2</i>
<i>Suv haqida maqollar.....</i>	<i>6</i>
<i>Soha fidoiysi suvchi ayol.....</i>	<i>7</i>
<i>Suv bilan bog`liq tibbiy tavsiyalar.....</i>	<i>8</i>

Tayyorladi axborot bibliografiya xizmati rahbari M.A.Raximova